



Murtazayev B.X

"ALFRAGANUS UNIVERSITY"

nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,

Ijtimoiy fanlar kafedrasi 2-kurs magstranti,

e-mail: baxtiyor@mail.r

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom at-Termiziy asarlarining axloqiy jihatlari falsafiy ma'noda ochib berilgan. Shuningdek, muhaddis asarlarida ilgari surilgan axloqiy qarashlarning ilmiy tafakkurga ta'siri asoslab berilgan. Shu bilan birga, muhaddis asarlarining ilmiy bugungi davrda ilmiy tafakkurga ta'siri ochib berilgan. Qolaversa, uning asarlaridagi axloqiy masalalarning inson dunyoqarashiga ta'siri ilmiy nuqtai nazardan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: muhaddis, suvrat (tashqi qiyofa), hadis, rijol (roviy), unvonlar (anoviyn) , juz' (qism), xotima, siqasi (to'g'riligi, aniqligi), darajasi (rutbasi).

ХАРАКТЕРИСТИКА ЭТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ ИМАМА АТ-ТЕРМИЗИ

Аннотация: В данной статье в философском смысле раскрываются нравственные аспекты произведений Имама ат-Турмизи. Также обосновано влияние моральных взглядов, высказанных в трудах Мухаддисов, на научное мышление. При этом выявлено влияние работ Мухаддиса на научное мышление в современный научный период. Кроме того, с научной точки зрения освещено влияние вопросов морали в его произведениях на мировоззрение человека.

Ключевые слова: мухаддисы, суррат (внешний облик), хадис, риджалъ (рассказчик), титулы (аноин), джуз (часть), хатима, сикаси (точность, достоверность), уровень (рутбаси).

CHARACTERISTIC ASPECTS OF THE ETHICAL VIEWS OF IMAM AT-TERMIZI

Abstract: In this article, the moral aspects of the works of Imam al-Tirmizi are revealed in a philosophical sense. Also, the influence of moral views advanced in the works of Muhaddis on scientific thinking is substantiated. At the same time, the impact of Muhaddis's works on scientific thinking in today's scientific period has been revealed. In addition, the influence of moral issues in his works on human worldview is highlighted from a scientific point of view.

Key words: muhaddis, surrat (external appearance), hadith, rijjal (narrator), titles (anowin), juz' (part), khatima, siqasi (accuracy, accuracy), level (rutbasi).

Abu Iso at-Termiziyning boshqa bir yirik asari «Ash-shamoil an-nabaviyya» («Payg‘ambarning alohida fazilatlarini») deb ataladi. Bu asar ba'zi manbalarda «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallollohu alayhi vassallam», «Ash-shamoil al-Muhammadiya» nomlari bilan ham keltirilgan. Asar payg‘ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to‘rt yuz sakkiz hadisi sharifni o‘ziga jamlagan qimmatli manbadir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, ushbu mavzu ya’ni payg‘ambar alayhissalomning fazilatlarini, odatlari haqidagi hadislarini to‘plash bilan juda ko‘p olimlar, muhaddislar shug‘ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o‘rin olgan. Lekin at-Termiziy asarining boshqalardan afzalligi va farqi shundaki, muallif imkoni boricha payg‘ambar alayhissalom fazilatlariga doir barcha hadislarini muntazam ravishda to‘plab, mantiqan izchil bir holatda tartibga keltirgan va o‘ziga xos mustaqil, yaxlit kitob shaklida tasnif qilgan.

Muhim tarixiy manba sifatida «Ash-shamoil an-nabaviyya» fors va turk tillariga ham tarjima qilingan. 1248 hijriy yili Hisomiddin an-Naqshbandiy tomonidan turkiy tilga qilingan tarjimasi arab tilini bilmaydigan turkiy xalqlar uchun g‘oyatda foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. At-Termiziyning ushbu asariga sharh yozgan shayx ibrohim al-Bojuriy: «Imom at-Termiziyning «Ash-shamoil an-Mashriqqa borib yetdi»⁶, - deb ta’kidlaydi. Mashhur olim Ali ibn Sulton al-Haraviy al-Qoriy o‘zining yuqorida zikr qilingan «Jam' al-vasoif fi sharh ash-Shamoil» nomli sharhida at-Termiziyning ushbu asari xususida shunday deb yozadi: «Rasululloh sallollohu alayhi vassallamning fazilatlarini, axloqlari haqida tasnif etilgan musannafotlarning eng chiroyli va yaxshisi bu Imom at-Termiziyning payg‘ambar siyratlari haqidagi mukammal va muxtasar kitoblaridir. Bu kitobni mutolaa qilgan har kishi janob payg‘ambarni ko‘rganday va ul zotning har bobidagi mahosini shariflaridan bahramand bo‘lganga o‘xshaydi»⁷. Oldinroq eslatib o‘tganimizdek, asarning Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Sayyid Maxmud Taroziy tomonidan ona tilimizga qilingan muxtasar tarjimasi 1990-yili Imom at-Termiziyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan Toshkentda qaytadan nashr qilindiki, bu hol buyuk muhaddisning qimmatli asarini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

«Ash-shamoil an-nabaviyya»ning tuzilishi va tarkibi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu muxtasar asar ellik olti bobga bo‘linib u «bobun joa fi xalqi Rasululloh sallollohu alayhi vassallam», ya’ni «Rasululloh sallollohu alayhi vassallamning jismi karimlari haqida rivoyat qilingan hadis shariflar bobi» dan tashkil topgan. Umuman olganda, mazmun-mohiyatiga ko‘ra asarni ikki asosiy qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismga mansub hadislar payg‘ambar alayhissalomning suvrat (tashqi qiyofa)lariga bag‘ishlangan. Bularga ko‘ra payg‘ambarimiz novcha ham, pakana ham bo‘lmay, balki o‘rta bo‘li, yag‘rindor, qo‘llari bo‘lali, go‘shtdor va doimo jun bilan qoplangan, kaftlari bo‘liq, qirg‘iyburun, peshonalari keng, ko‘zlari katta-katta bir zot bo‘lgan.

Imom at-Termiziyning bizgacha yetib kelgan «Al-ilal fil-hadiys» («Hadislardagi illatlar yoki nuqsonlar») nomli muhim asari ikki mustaqil asardan tashkil topgan. Ulardan biri «Al-ilal al-kabiyr» yoki «Al-mufrad» nomi bilan atalgan asari bizgacha yetib kelmagan, degan taxmin bor. Garchand aksar tadqiqotchilar ham shunday fikrda bo‘lsalar-da, Imom at-

⁶ Sovet Sharqi musulmonlari, 1990 yil, 3-son, 8-bet.

⁷ Al-Mavohib al-laduniyya, birinchi qism, 2-bet.

Termiziyning hayoti va faoliyatiga doir maxsus risola yozgan olim Nuriddin Atar (ushbu risolaning Bayrutda 1988-yilda chop etilgan ikkinchi nashrida) Turkiyaning qimmatli qo'lyozmalarga boy kutubxonalaridan birida at-Termiziyning «Al-ilal al-kabiyr» asarining yagona qo'lyozmasini ko'rgani va undan fotonusxa olib o'z tadqiqotining ushbu qayta nashrida foydalangani haqida yozadi⁸. Uning yozishicha, at-Termiziy «Al-ilal al-kabiyr»ni ta'lif etgan paytda uni boblarga bo'lmagan holda yozgan. Ammo keyinchalik bu ajoyib kitob olim Abu al-Valid al-Qoziy tomonidan tartibga keltirilib boblarga ajratilgan va kitob oxirida mustaqil bir bob, hadis rijjol (roviy)lari haqidagi fikr mulohazalar bayon etilgan.

«Al-ilal»ning ikkinchisi «Al-ilal as-sag'iyr» deb ataladi. U muallifning bosh asari «Al-Jomi' as-sahiyh»ga bevosita aloqador bo'lganligi sababli xotima tariqasida ushbu asarning oxirida keltirilgan. Umuman olganda, arabcha «ilal» so'zi «illat»ning ko'pligi bo'lib, o'zbekcha kasal, betob, xasta, noqis, illatli, og'ish kabi lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Kezi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, hadis ilmida ilal masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, turli sabablarga ko'ra roviylar tomonidan yo'l qo'yilgan zaiflik, noaniqlik, g'alat, xato, sahv kabi yanglishlar tadqiq etiladi. Ko'pgina muhaddislarning hadislarga bu jihatdan ham katta e'tibor berib, asarlar yaratgani bu ilmning islom ta'limotida g'oyatda foydali va muhim ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. Illatli hadislar xususida Imom al-Buxoriyning ustoz Ali ibn Abdulloh al-Madiyniy, Imom Ahmad ibn Hanbal, Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy, Abu Hotam va boshqalar asarlar yozganlar. Mana shu buyuk muhaddislar orasida ham Imom at-Termiziyning ilal to'g'risidagi asarlari hadislarning siqasi (to'g'riligi, aniqligi)ni tekshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida «al-Jomi' as-sahiyh» («Ishonchli to'plam») eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek, «al-Jomi' al-kabiyr», («Katta to'plam»), «Sahiyh at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyni yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan⁹. Ushbu asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o'zimizda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida «Al-Jomi' as-sahiyh» bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mitohda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980-yili Bayrutda nashr etilganligini ko'rsatish kifoya. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan ibn al-Arabiy (vafoti 543 hijriy, 1148 melodiy yili) nomi bilan mashhur bo'lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbilyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy» nomli 13 juz' (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931-yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat ul-Ahvaziy bisharhi at-Termiziy» deb ataladi. To'rt juz'dan iborat bo'lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin

⁸ Hoji Xalifa, Kashf az-zunun, 1-jild, 376-bet.

⁹ Al-Asqaloni. Tahziyb at-tahziyb, 9-jild, 389-bet.

Abdurrahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyning (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi «Qut al-mug'taziy ala Jomi' at-Termiziy» (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan.

Hadis ilmi bilan shug'ullangan muhaddislar hadislarni boblarga bo'lish (tabviyb)ga, tarojum va unvonlar (anoviyn)ga alohida e'tibor berganlar. Bu masalalar muallifdan yuksak salohiyatni talab qiladi. Boblarga bo'lish masalasi yaxshi hal bo'lgan asarlarning, bir tomondan, ilmiy ahamiyati katta bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu zayldagi asarlar ulkan amaliy ahamiyatga ham molikdir. Chunonchi, undan foydalanuvchi har bir kishi istagan masala bo'yicha kerakli ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Mana shu tarzda ilmiy-amaliy ahamiyatga molik olti kitob eng ishonchli manba hisoblanadi. Ular olti kitob (kutub sitta) yoki olti sahiyh kitoblar (as-sihoh as-sitta) nomli bilan ataladi: al-Buxoriyning «Sahiyh», Muslim ibn Hajjojning «Sahiyh», at-Termiziyning «al-Jomi'», Abu Dovudning «as-Sunan», an-Nasoiyning «al-Mujtabo» yoki «as-Sunan» va Ibn Moja al-Qazviniyning «as-Sunan» asarlari.

Imom at-Termiziy o'z ustoz va safdoshi Imom al-Buxoriy suhbatida bo'lganda u at-Termiziyga «Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ko'proq»¹⁰, deb uning bilimi va aql-idrokiga yuksak baho bergan. Mana shu keltirilgan fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, Imom at-Termiziy hadis ilmining ravnaqiga munosib hissa qo'shgan buyuk alloma bo'lgan. Shu bilan bir qatorda Imom at-Termiziy faoliyatiga bir qadar ta'na bilan qaragan olimlar ham bo'lgan. Uni sahiyh va hasan hadislar darajasi (rutbasi)ni aniqlashda biroz ko'ngli bo'sh, iltifotli bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Sovet Sharqi musulmonlari, 1990 yil, 3-son, 8-bet.
2. Al-Mavohib al-laduniyya, birinchi qism, 2-bet.
3. Hoji Xalifa, Kashf az-zunun, 1-jild, 376-bet.
4. Al-Asqaloniyy. Tahziyb at-tahziyb, 9-jild, 389-bet.
5. Ibn Hajar al-Asqaloniyy. Tahziyb at-tahziyb, 9-jild, 388-bet.

¹⁰ Ibn Hajar al-Asqaloniyy. Tahziyb at-tahziyb, 9-jild, 388-bet.